

O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Jalilova Shoir Abdurahimovna

*Namangan viloyati Kosonsoy tumani
34-umumta'lim maktabining direktori*

Annotatsiya: mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Korrupsiya tushunchasi, uning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tamoyillar va davlat siyosati belgilanganligi, qonun hujjatlari tizimi va amaliy choralarning ahamiyati yoritiladi. Korrupsiyaning oldini olish, aniqlash va jazolash bo'yicha milliy mexanizmlar, davlat organlarining huquqiy vakolatlari, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, korrupsiya, qarshi kurashish, konstitutsiya, huquqiy asoslar, davlat siyosati, qonunlar, jinoyat, profilaktika, huquqiy mexanizm, fuqarolik jamiyati, ochiqlik, javobgarlik, institutlar, huquqiy ong.

Аннотация: в данной статье анализируются конституционные и правовые основы борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан. Рассматривается понятие коррупции, её социальные и правовые последствия. Также освещаются принципы и государственная политика по борьбе с коррупцией, закрепленные в Конституции Узбекистана, значимость системы законодательных актов и практических мер. Обсуждаются национальные механизмы предупреждения, выявления и наказания коррупционных правонарушений, полномочия государственных органов, а также вопросы повышения правового сознания граждан.

Ключевые слова: Узбекистан, коррупция, борьба с коррупцией, конституция, правовые основы, государственная политика, законы, преступление, профилактика, правовой механизм, гражданское общество, прозрачность, ответственность, институты, правовое сознание.

Annotation: this article analyzes the constitutional and legal foundations of combating corruption in the Republic of Uzbekistan. The concept of corruption, its social and legal consequences are examined. It also highlights the principles and state policy on combating corruption as established in the Constitution of Uzbekistan, as well as the importance of the system of legislative acts and practical measures. National mechanisms for preventing, detecting, and punishing corruption, the legal powers of state bodies, and issues related to raising citizens' legal awareness are discussed.

Key words: Uzbekistan, corruption, combating corruption, constitution, legal foundations, state policy, laws, crime, prevention, legal mechanism, civil society, transparency, responsibility, institutions, legal awareness.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon korrupsiyaga qarshi kurashish masalasini huquqiy davlat barpo etishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda olib borilayotgan demokratik islohotlar jarayonida korrupsiyani kamaytirish, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan qonun ustuvorligi, davlat organlari mas'uliyati, sud hokimiyatining mustaqilligi kabi prinsiplar korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy poydevorini tashkil etadi. Bundan tashqari, 2017- yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilab berdi. Korrupsiya — jamiyat va davlat barqarorligiga, ijtimoiy adolatga tahdid soluvchi xavfli ijtimoiy-huquqiy muammo hisoblanadi. O'zbekistonda bu muammoga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari mustahkam tizimga ega bo'lib, davlat siyosatining muhim elementi sifatida shakllantirilgan.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi nafaqat huquqiy, balki siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb mavzulardan biridir. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajribalar va milliy qonunchilik hujjatlari tahlili korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini ta'minlashda konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarning muhimligini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, Transparency International tashkiloti har yili e'lon qiladigan Korrupsiya idroki indeksi (CPI) ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya nafaqat iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi, balki fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini ham pasaytiradi [Transparency International, 2023]. Mahalliy olimlardan A. Azizxo'jayev va M. Saidov o'z tadqiqotlarida korrupsiyaning oldini olishda Konstitutsiya normalari, davlat organlarining ochiqligi va jamoatchilik nazoratining alohida o'rin tutishini ta'kidlaydilar [Azizxo'jayev, 2020; Saidov, 2021]. Ularning fikricha, Konstitutsiyada belgilangan qonun ustuvorligi va sud hokimiyatining mustaqilligi korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy kafolat sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, Xalqaro huquqiy hujjatlarda, jumladan, BMTning 2003-yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyani oldini olish, jinoiy javobgarlikni kuchaytirish va davlatlararo hamkorlikni kengaytirish masalalari yoritilgan. O'zbekiston ushbu konvensiyaga qo'shib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida qator qadamlar tashladi [UNODC, 2004].

Qonunning samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan "2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi" hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlanib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6013-sonli Farmoni qabul qilindi va ushbu Farmonda ham korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari belgilab berildi. Amalga oshirilgan islohotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta'sir qildi. Jumladan, 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha jami 1723 nafar, shundan 9 nafar respublika darajasidagi, 45 nafar viloyat darajasidagi, 1669 nafar tuman va shahar darajasidagi mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilib, korrupsiya oqibatida yetkazilgan 500 mlrd so'mlik moddiy zararining 71 foizi yoki 355 mlrd so'mi aybdorlardan tergov davomida undirilgan bo'lsa, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog'liq bo'lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rinlarda turadi, Jumladan, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkilotining 2020-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya darajasi past mamlakatlar reytingida Yangi Zelandiya 1, Daniya 2, Finlandiya, Singapur, Shvitsiya 3-o'rinni egallagan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston 94, Qirg'ziston 124, O'zbekiston 146-o'rinni egallagan [7]. Hech bir davlat korrupsiyadan, uning zararli oqibatlaridan mutlaq himoya qilinmagan. Shu sababli har bir davlat qonunlarida korrupsiyaga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Xitoy Jinoyat kodeksining 382-moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, firibgarlik yo'li bilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korrupsiya deb hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari, davlat korxonalari, korxonalar, tashkilotlar, xalq birlashmalari davlat mulkini boshqarish va xo'jalik yuritish ishonib topshirilgan shaxslarning o'z xizmat afzalliklaridan foydalangan holda o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, aldash yo'li bilan davlat mulkini boshqa yo'llar bilan noqonuniy egallab olishi ham korrupsiya sifatida baholanishi belgilangan. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korrupsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish

jazosi tayinlanishi, agar mol-mulki musodara qilingan holda yoki unsiz yillar yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlashtiruvchi holatlarda – o'lim jazosi va mol-mulkini musodara qilish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligi va adolat prinsiplari asosida davlat organlarining faoliyatini tartibga soladi. Ushbu tamoyillar korrupsiyaga qarshi kurashishda poydevor vazifasini bajaradi. Konstitutsiyada davlat organlari va mansabdor shaxslarga o'z faoliyatini halollik, oshkoralik va qonuniylik asosida olib borish majburiyati yuklanadi. Bu siyosiy-iqtisodiy faoliyatda korrupsiyani kamaytirish uchun asosi sifatida qaraladi. Korrupsiyaga qarshi kurash O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi, ma'muriy javobgarlik kodeksi, maxsus anti-korrupsiya qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan batafsil tartibga solingan. Ushbu hujjatlar orqali korrupsion huquqbuzarliklar aniqlanadi, tergov qilinadi va jazo choralari qo'llaniladi. Korrupsiyaga qarshi kurashda monopol vakolatga ega davlat organlari — prokuratura, ichki ishlar vazirligi, davlat soliq qo'mitasi hamda maxsus tashkilotlar faoliyat yuritadi. Davlat korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish uchun keng ko'lamli qonunlarni takomillashtirish, boshqaruv tizimida ochiqlikni ta'minlash va raqamlashtirish, davlat xizmatini modernizatsiya qilishga e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, korrupsiya profilaktikasi bo'yicha targ'ibot, o'quv seminarlari va auditoriya ongini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Fuqarolik jamiyati va OAVlarning faol ishtiroki bu boradagi monitoring va jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolarning huquqiy madaniyati va mas'uliyat hissini shakllantirish muhim omil. Davlat ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash prinsiplariga asoslanib, huquqiy ta'lim va axborot kampaniyalari amalga oshiriladi. Bu yosh avlodda qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchni oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashda ijtimoiy faollikni rag'batlantirishga qaratilgan. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati bo'lib, u qonuniy asoslar, davlat siyosati va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish orqali samarali amalga oshirilmoqda. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati hamkorligi korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu tarzda, korrupsiyaga qarshi kurash O'zbekiston jamiyatining barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);

2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption);
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387> / Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for further improvement of the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan");